

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent davlat tibbiyot
universiteti o'quv ishlari bo'yicha
prorektori Q.N. Hayitov

20__ yil «__» _____

**OPERATIV XIRURGIYA VA
TOPOGRAFIK ANATOMIYA
FANI BO'YICHA SILLABUS**

Kunduzgi bo'lim uchun

Bilim sohasi:	900 000	–Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910 000	–Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishlari:	60910300	–Davolash ishi

Toshkent-2025

Modul/FAN SILLABUSI
Farmatsiya, menejment, tibbiy biologik ish, biotibbiyot muhandisligi va oliy
hamshiralik ish fakulteti
60910200- Davolash ishi, harbiy ta'lim yo'nalishi

Fan nomi:	OPERATIV XIRURGIYA VA TOPOGRAFIK ANATOMIYA
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	TBUG11-207
Yil:	2025/2026
Semestr:	4
Ta'lim shakli:	kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	
Ma'ruza	14
Amaliy mashg'ulotlar	46
Laboratoriya mashg'ulotlari	-
Seminar	-
Mustaqil ta'lim	60
Kredit miqdori:	5
Baholash shakli:	
Fan tili:	o'zbek va rus

Fan maqsadi (FM)	
FM1	1.1. Operativ jarrohlik va topografik anatomiya fanini o'qitishdan maqsad bakalavr darajasidagi tibbiyot talabalariga (umumiy amaliyot shifokorlari) topografik usullarning nazariy va amaliy asoslarini to'liq tushunishni ta'minlashdir. Kurs golotopiya, skletopiya, sintopiya, kompyuter tomografiyasi (KT), magnit-rezonans tomografiya (MRT) va operativ jarrohlikning tamoyillari, ko'rsatmalari va kontrendikatsiyalari bilan tanishtiradi. U talabalarda klinik fikrlashni, diagnostika kompetensiyasini va topografik bilimlarni odatiy tibbiy amaliyotda samarali qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu talabalarda inson tanasining tuzilishi, organlar va to'qimalarning funktsional va topografik anatomiyasi, yoshga bog'liq o'zgarishlar haqida bilim, ko'nikma (tadqiqot) va kompetensiyalarni shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun modul talabalarining nazariy bilimlarini, amaliy

	ko'nikmalarini, inson tanasining tuzilishiga metodologik yondashuvini va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Talabalarga tana tuzilishidagi individual va jinsiy farqlar, yoshga bog'liq o'zgarishlar, tizimlar va organlarning anatomo-topografik aloqalari, ularning rentgen anatomiyasi, tizimlar va organlarning rivojlanishidagi nuqsonlar haqida ma'lumot berish va atrof-muhit omillarini hisobga olgan holda aholi o'rtasida sog'liqni saqlashni targ'ib qilish sog'lom turmush tarzi haqida tushunchalarni shakllantirishga yo'naltiradi, kasalliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika choralarini tashkil etish maqsadida ixtisoslashgan gigiena fanlari uchun asos yaratadi.
--	---

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
1.	Anatomiya
2.	Gistologiya
3.	Tibbiy biologiya

Ta'lim natijalari (TN)	
	Bilim jihatidan:
TN1	Odam organizmining filo-ontogenezi va sistemalarning o'zaro bog'liqlik qonuniyatlarini bilishi lozim;
TN2	Sog'lom inson organ va sistemalarining yoshga qarab o'zgarishini va jinsiy farqlarini baholay olishi kerak;
TN3	Organ va sistemalarning vazifaviy anatomiyasi haqida chuqur tushunchaga ega bo'lishi lozim;
TN4	Organ va sistemalarga tashqi omillar ta'siri natijasida ba'zi o'zgarishlar haqida bilimga ega bo'lishi kerak;
TN5	Sog'lom organ va sistemalarni topografik prinsiplarini bilishi kerak.
	Ko'nikmalar jihatidan:
TN6	Xalqar terminologiya bo'yicha barcha tuzilmalarni nomlarini to'g'ri bilish;
TN7	Rentgen, O'TT, KT, MRT va MSKT tasvirlari yordamida tuzilmalarni aniqlash;
TN8	Suyaklar o'simtalari teri orqali aniqlash
TN9	Arteriyalar pulatsiyalarini aniqlash;
TN10	Bosh miya nervlarining chiqish teshiklarini aniq topa olish

Fan mazmuni	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	Qo'l va oyoqlar qon tomirlari, nerv poyalari, pay va bo'g'imlaridagi operatsiyalar tamoyillari. Amputatsiya va ekzartikulatiya qoidolari.
M2	Bosh sohasining topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi.
M3	Bo'yin sohasining topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi.
M4	Ko'krak sohasining topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi.
M5	Qorin sohasining topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi.
M6	Bel, qorinparda orti bo'shlig'i va tos sohalarining topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi.

Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A)	
A1	Topografik anatomiya va operativ xirurgiya fanining maqsadi va vazifalari, organish usullari va asosiy tushunchalari. Jarrohlik amaliyotida qo'llaniladigan zamonaviy apparatlar, uskunalar va asboblari. Og'riqsizlantirish usullari. Operatsiyalar haqida tushuncha. To'qimalarni ajratish va birlashtirish qoidolari, usullari va texnikasi. Jarohatga dastlabki jarrohlik ishlov berish texnikasi. Transplantologiya haqida tushuncha. Terini erkin ko'chirish usullari.
A2	Qo'lning topografik anatomiyasi. O'mrov osti, deltasimon, qo'litiq osti va kurak sohalari. Yelkaning oldingi va orqa sohalari. Tirsakning oldingi va orqa sohalari, tirsak chuqurchasi. Bilakning oldingi va orqa sohalari. Qo'l panjasi klinik anatomiyasi. Kaft sohasi fastsial o'rindiqlari, bo'shliqlari, kanallari.
A3	Oyoqning topografik anatomiyasi. Dumba sohasi. Sonning oldingi va orqa sohalari. Tizza sohasi. Boldirning oldingi va orqa sohalari. Boldir-to'piq sohasi. Oyoq panjasi topografik anatomiyasi.
A4	Qo'l va oyoqning operativ xirurgiyasi. O'mrov osti, qo'litiq osti, yelka, bilak, tirsak arteriyalarini, tashqi yonbosh, son, taqim, boldir arteriyalarini ochish va bog'lash texnikasi. Tomir choki. Qo'l va oyoq nervlariga operativ ochib kirish usullari. Nervlarni tikish texnikasi. Endoskopik nerv dekompressiyasi. Qo'l va oyoqdagi yiringli-yallig'lanish jarayonlarning topografik-anatomik xususiyatlari. Hasmollar: turlari, operativ davolash usullari. Qo'l va oyoqdagi turli lokalizatsiyadagi flegmonalarni ochish va drenajlash texnikasi.
A5	Qo'l va oyoq amputatsiyalari va ekzartikulatsiyalari. Qo'l va oyoq suyaklaridagi operatsiyalar. Qo'l transplantatsiyasi va bionik protezlash. Minimal invaziv ortopedik jarrohlik. Pay, bo'g'implarda bajariladigan asosiy operatsiyalar. Yelka va tizza bo'g'imini punktsiya qilish texnikasi.
A6	Boshning miya qismi topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi. Peshona, tepa, ensa, chakka, quloq va so'rg'ichsimon sohalari. Kalla qutisi: kalla gumbazi, tashqi va ichki asoslari. Bosh miya pardalari, pardalararo bo'shliqlar. Bosh miya topografik anatomiyasi. Kronleyn-Bryusova

	chizmasi. O'n ikki juft kalla nervlari klinik anatomiyasi. Kalla-miya jarohatlariga dastlabki jarrohlik ishlov berish. Boshning yumshoq to'qimalari, venoz sinuslardan ketayotgan qonni to'xtatish. Kalla trepanatsiyasi: usullari va texnikasi.
A7	Boshning yuz qismi topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi. Quloq oldi-chaynov, lunj va yuzning chuqur sohalari, halqum atrofi va halqum orti bo'shliqlari. Ko'z, ko'z osti, burun, og'iz va engak sohalari. Yuz-jag' sohasida bajariladigan og'riqsizlantirish usullari. Yuz sohasining yiringli jarayonlari lokalizatsiyasi va tarqalish yo'llari. Yuqori jag' bo'shlig'ini punktsiya qilish.
A8	Bo'yin sohasining topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi. Bo'yin bo'limlari, uchburchaklari, fassiya va kletchatka bo'shliqlari. Bo'yinning oldingi bo'limi: tilosti usti va tilosti pastki sohalari, uyqu uchburchagi, bo'yin a'zolari va nerv chigallari topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi. Uyqu va til arteriyalarini ochish va bog'lash texnikasi. Traxeotomiya. Bo'yinning yon bo'limi va to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon sohasi topografik anatomiyasi. Chuqur mushaklararo tirqishlar, ko'krak limfa yo'lining bo'yin qismi. Vagosimpatik blokada texnikasi. Bo'yinning orqa sohasi (qavatma-qavat tuzilishi, muskullari, kletchatkalari) topografik anatomiyasi. Bo'yin sohasidagi yiringli jarayonlar va ularni ochish hamda drenajlash texnikasi.
A9	Ko'krak sohasining topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi. Ko'krak yuza sohalari: chegaralari, qavatma-qavat topografiyasi, kletchatka bo'shliqlari. Ko'krak qafasi, qovurg'alararo oraliqlar. Sut bezi, ko'krak ichi arteriyasi va diafragmaning topografik anatomiyasi. Torakotomiya turlari va texnikasi. Qovurg'a rezektsiyasi. Mastitlardagi operativ aralashuv usullari.
A10	Ko'krak bo'shlig'i: plevra, plevral bo'shliq, plevral sinuslar. Kekirdak, bronxlar, o'pkalar, o'pka ildizi topografik anatomiyasi. Plevra bo'shlig'ini punktsiya qilish va drenajlash. O'pka jarohatini tikish usullari va texnikasi. Oldingi ko'ks oralig'i: perikard, yurak, timus, yuqori va pastki kavak vena, difragmal nervlar, ko'tarilvchi aorta, aorta ravog'i, pastga tushuvchi aorta topografik anatomiyasi. Perikard punktsiyasi. Yurak jarohatiga chok qo'yish. Orqa ko'ks oralig'i: aortaning, qizilo'ngachning ko'krak qismi, ko'krak limfa yo'li, adashgan nervlar, ko'krak simpatik poyasi topografik anatomiyasi. Ko'ks oralig'i bo'limlari, kletchatka bo'shliqlari.
A11	Qorin sohasining topografik anatomiyasi va operativ xirurgiyasi. Qorinning old-yon devori: sohalari, qavatma-qavat tuzilishi, qorin devorlarining zaif joylari. Kindik, chov va son kanallari, ularning bolalardagi xususiyatlari. Tashqi va ichki churralarning klinik anatomiyasi. Churra kesish va churra darvozalarini plastika qilish usullari va texnikasi.
A12	Qorin bo'shlig'i. Qorin parda bo'shlig'i, qorin parda yo'nalishi, qorin parda bo'shlig'ining qavatlarga bo'linishi, qorin parda hosilalari. Qorinparda bo'shlig'i yuqori qavati: qizilo'ngachning qorin qismi, oshqozon, o'n ikki barmoq ichak, taloq, oshqozon osti bezi, qorin poyasi va yuqori hamda

	pastki tutqich arteriyalari, jigar, o't pufagi va o't yo'llari, darvoza venasi tizimi, portokaval anastomozlar, qorin nerv chigallari topografik anatomiyasi. Qorin parda bo'shlig'ini punksiya qilish. Laparotomiya: turlari va texnikasi. Qorinparda bo'shlig'ini yopish. Oshqozon va o'n ikki barmoq ichakdagi operatsiyalar. Jigarga chok qo'yish, jigar rezeksiyasi. O't pufagi va o't yo'llaridagi operatsiyalar.
A13	Qorinparda bo'shlig'ining pastki qavati: ingichka va yo'g'on ichak topografik anatomiyasi. Enterotomiya, enterostomiya. Inigichka va yo'g'on ichak rezeksiya turlari va texnikasi. Ichak choklari turlari va ichak chokini qo'yish texnikasi. Ichaklararo anastomoz. Appendektomiya. Ileostoma. Kolostoma.
A14	Bel sohasi, umurtqa pog'onasi va orqa miya topografik anatomiyasi. Lyumbal punksiya texnikasi. Qorinparda orti bo'shlig'i: buyraklar, siydik yo'llari, buyrak usti bezlari, pastki kavak vena, qorin aortasi, bel simpatik poyasi, bel nerv chigali topografik anatomiyasi. Paranebral blokada. Buyraklarga va siydik yo'llariga operativ ochib kirish usullari. Buyraklarda va siydik yo'llarida bajariladigan operatsiyalar. Urologiyada lazer texnologiyasi.
A15	Tos sohasi topografik anatomiyasi. Chanoq bo'shlig'ining qavatlari, fassiyalari, kletchatka bo'shliqlari, qon tomir tizimi. Chanoq bo'shlig'i a'zolari. Oraliq sohasi topografiyasi. Siydik pufagini kateterlash va punksiya qilish. Sistotomiya va sistostomiya. Paraproktit, bavoilda operatsiyalar. Qin orqa gumbazi punksiyasi. Bachadon va uning ortiqlariga operativ ochib kirish usullari. Tanosil nervi blokadas. Varikotseleda bajariladigan operatsiyalar.

Mustaqil ta'lim (MT)		soat
1	Zamonaviy og'riqsizlantirish usullari, xirurgik asbob, uskuna va moslamalar. Robotlashtirilgan xirurgiya amaliyoti. Endovaskulyar operatsiyalar. O'mrov osti va son venalarini punksiya qilish va kateterlash. Mikroxirurgik texnika. Transplantologiyada mikroxirurgiyaning qo'llanilishi.	4
2	Qo'l va oyoq bo'g'imlari klinik anatomiyasi va ularda bajariladigan zamonaviy operatsiyalar.	4
3	Qo'l va oyoq qon tomirlarda bajariladigan zamonaviy rekonstruktiv operatsiyalar turlari va texnikasi. Oyoq venalari varikoz kasalligida bajariladigan operatsiyalar.	4
4	Bolalarda amputatsiya xususiyatlari. Suyaklar patologiyalarida bajariladigan operatsiyalar.	4
5	Neyroxirurgiyada qo'lga kiritilgan yutuqlar. Kranioplastika. Minimal invaziv kraniotomiya. So'rg'ichsimon o'siq trepanatsiyasi. Neyronavigatsion jarrohlik.	4
6	Yuzdagi plastik operatsiyalar xususiyatlari. Virtual modellashtirish, 3D-skanerlash texnologiyalari. Raqamli yuz-jag' xirurgiyasi.	4

7	Bo'yinning o'rta, yon oqmalari va kistalari. Ekstrakranial arteriyalardagi zamonaviy operatsiyalar. Kekirdak intubatsiyasi. Traxeo-, bronxoskopiya. Subtotal subfassial strumektomiya. Bo'yin sohasi patologiyalarida innovatsion texnologiyalar ahamiyati.	4
8	Ko'krak devori hamda diafragmaning tug'ma va orttirilgan patologiyalarida operatsiyalar. Qovurg'alarao blokada texnikasi. Torakoplastika usullari. Sektoral va radikal mastektomiya.	4
9	Pnevmonektomiya, lobektomiya, segmentektomiya texnikasi. Yurakning tug'ma nuqsonlari xirurgiyasi. Mediastinitlar jarrohliginig zamonaviy usullari. Aortaning, qizilo'ngachning ko'krak bo'limiga operativ ochib kirish usullari. Qizilo'ngachning transplevral rezeksiyasi, qizilo'ngach plastikasi. Robotlashtirilgan torakal xirurgiya.	4
10	Operatsiyadan keyingi qorin churrallari operativ xirurgiyasi. Bolalarda churra kesish xususiyatlari. Laparoskopik gerniotomiya. Qorin bo'shlig'i ichki churrallari.	4
11	Laparoskopik xirurgiya. Laparoskopik splenektomiya. Oshqozon osti bezi xirurgiyasi. Biliodigestiv anastomozlar. Qorin parda bo'shlig'i bitishma kasalligi muammosi. Kaminvaziv xirurgiya. Peritonitlarda qorin bo'shlig'ini drenajlash usullari. O't chiqarish yo'llarining atreziyalarida operatsiyalar. Porto-kaval shuntlash operatsiyalari.	4
12	Semizlik xirurgiyasi – bariatriya texnologiyalari. Mekkel divertikulini olib tashlash. Megakolon va Girshprung kasalligida operatsiyalar. Ichak tutilishi muammosi.	4
13	Buyrak va siydik yo'llarining tug'ma va orttirilgan nuqsonlarini operativ davolash uslublari. Bel churrallari va ularni operativ davolash usullari. Umurtqa pog'onasi orqa miyaning tug'ma nuqsonlari operativ davolash usullari. Orqa miya churralarida operatsiyalar. Lyumbal punksiya va paranefral blokada texnikasi. Laminektomiya.	4
14	To'g'ri ichak oraliq va ampulyar bo'limlari jarohatlarida operativ aralashuvlar. Kolpotomiya, kesarcha kesish operatsiyasi. Ginekologiyada S.I.L.S texnologiyasi. plOM texnologiya. Chanoq kletchatka bo'shliqlarini drenajlash usullari.	4
15	Yorg'oq istisqosida bajariladigan operatsiyalar. Kriptorxizm, epispadiya, gipospadiya operativ xirurgiyasi. Anal teshik va to'g'ri ichak atreziyalarida operatsiyalar. Proktologiya amaliyotida qo'llaniladigan zamonaviy usullar. Tos tubi prolapsi muammosi. Laparoskopik pektopeksiya.	4

Asosiy adabiyotlar	
1	Shomirzayev N.H. Ahmedov Sh.m. Gulmanov I.Dj Klinik Anatomiya 2022y.
2	Agzamov K.A. Topografik anatomiya amaliy qo'llanma 2009 y.
3	Teshayev Sh.J. Opirativ xirurgiya topografik anatomiya 2019
4	Gabchenko A.K. Operativ xirurgiya topografik anatomiya 2005 y.
5	Sapin M.R. Anatomiya cheloveka, Uchebnik: v 2 tomox. Moskva. 2018 y.
6	Netter Frenk. Atlas anatomii cheloveka. 6-e izdanie, Moskva. 2018 y.
Qo'shimcha adabiyotlar	
1	Vijay P. Xatri. Ilg'or operativ jarrohlik atlas. Mualliflik huquqi © 2013 Saunders, Elsevier Inc. nashriyoti tomonidan himoyalangan.
2	John T. Hansen "Netters klinik anatomiyasi" 3-nashri. — Nyu-York, — 2014.
3	Richard L. Drake., A. Wayne Vogl., Adam W.M. Mitchell., Gray's. Talabalar uchun anatomiya (uchinchi nashr). 2014.
4	Keith L. Moore, Arthur M.R. Dallet, Anne M.R. Agur. Klinik yo'naltirilgan anatomiya, 7-nashr, 2013.
5	Vijay P. Xatri. Ilg'or operativ jarrohlik atlas. Mualliflik huquqi © 2013 Saunders, Elsevier Inc. nashriyoti tomonidan himoyalangan
6	John T. Hansen "Netters klinik anatomiyasi" 4-nashri. — Nyu-York, — 2014.
7	Kenneth S., Saladin, Human Anatomy, USA 2014 g.
8	Netter.F.H., Atlas of Human Anatomy. 2012 g.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
90-100	A	«a'lo»	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; tibbiy terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, aniq va lo'nda javob bera olsa; muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;	5	A'lo

			modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi; nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi; amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va rasional ravishda hal etishi; amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni juda yaxshi bilishini namoyish qilishi ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (doim rasional) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada mustaqil rasmiylashtira olishi; modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi; modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
85-89	B+	«juda yaxshi»	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; tibbiy terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'mida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, aniq javob bera olsa; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda	4	yaxshi

			yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi; amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham rasional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olishi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
71-84	V	«yaxshi»	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; tibbiy terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri javob bera olsa; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini	3,5	

			bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham rasional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada mustaqil rasmiylashtira olmaganligi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;		
60-70	S	«qoniqarli» – sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	modul dasturi doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi; tibbiy terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi; amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil, ammo	3	Qoniqarli

			hatoliklar bilan egallashi; modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi; o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
0-59	F	«qoniqarsiz»	modul dasturi doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; tibbiy terminlarni ishlata olmasa yoki savollarga javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.	2	Qoniqarsiz

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Mualliflar:	S.M.Axmedova I.A. Tilyabov
E-mail:	tilyabovi@gmail.com
Tashkilot:	TDTU, odam anatomiyasi va OXTA kafedrası
Taqrizchilar:	b.f.d, professor Xalikov P.X.

Mazkur Sillabus TTA o'quv-uslubiy Kengashining 2025yil _____-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Odam anatomiyasi va OXTA" kafedrasining 2025-yil
____-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i



F.X. Azizova

Fakultet dekani



Q.E. Shomurodov

Kafedra mudiri



S.M. Axmedova

Tuzuvchilar



I.A. Tilyabov